



**TERRORIZMNI MOLİYALASHTIRISHDA GIYOHVANDLIK
VOSITALARINING O‘RNI**

Oripov Temurmali

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrası
o‘qituvchisi*

Shamsiyev Xurshid Faxriddin o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi kursanti
Toshkent sh.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20572296>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy xalqaro jinoyatchilikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan terrorizmni moliyalashtirishda giyohvandlik vositalari savdosining (narkoterrorizmning) o‘rni va ahamiyati tizimli tahlil qilingan. Terroristik tashkilotlarning o‘z faoliyatini kengaytirish, qurol-yarog‘ sotib olish va yollanma shaxslarni tayyorlashda transmilliy narkotrafikdan asosiy moliyaviy manba sifatida foydalanish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatining imkoniyatlari, idoralararo hamda xalqaro hamkorlikning roli, "darknet" va kriptovalyutalar kabi zamonaviy tahdidlar tadqiq etilib, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: terrorizmni moliyalashtirish, giyohvandlik vositalari, narkotrafik, narkoterrorizm, tezkor-qidiruv faoliyati, transmilliy jinoyatchilik, jinoiy daromadlarni legallashtirish, xalqaro xavfsizlik.

Аннотация: В данной научной статье проводится системный анализ роли и значения незаконного оборота наркотических средств (наркотерроризма) в финансировании терроризма, что является одним из наиболее опасных проявлений современной международной преступности.

Contact: 99 826 99 56





Освещены механизмы использования транснационального наркотрафика в качестве основного финансового источника для расширения деятельности террористических организаций, закупки оружия и подготовки наемников. Также исследованы возможности оперативно-розыскной деятельности, роль межведомственного и международного сотрудничества, современные угрозы, такие как «даркнет» и криптовалюты, в борьбе с данным видом преступлений. Разработаны научно-практические предложения по совершенствованию национального законодательства и правоприменительной практики.

Ключевые слова: финансирование терроризма, наркотические средства, наркотрафик, наркотерроризм, оперативно-розыскная деятельность, транснациональная преступность, легализация преступных доходов, международная безопасность.


Abstract: This scientific article provides a systematic analysis of the role and significance of drug trafficking (narcoterrorism) in financing terrorism, which is one of the most dangerous manifestations of modern international crime. The mechanisms of using transnational drug trafficking as a primary financial source for expanding the activities of terrorist organizations, purchasing weapons, and training mercenaries are highlighted. Furthermore, the capabilities of operational-search activities, the role of interagency and international cooperation, and modern threats such as the "darknet" and cryptocurrencies in combating this type of crime are investigated. Scientific and practical proposals for improving national legislation and law enforcement practice have been developed.

Keywords: financing of terrorism, narcotic drugs, drug trafficking, narcoterrorism, operational-search activity, transnational crime, money laundering, international security.

KIRISH

Contact: 99 826 99 56

320





Globallashuv jarayonlarining tezlashishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda davlatlararo chegaralarning ochiqligi ijobiy omillar bilan bir qatorda, transmilliy jinoyatchilikning yangi va o'ta xavfli shakllari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatni eng ko'p tashvishga solayotgan muammolardan biri – bu terrorizm va uning moliyaviy qon tomiri hisoblangan narkotrafikning o'zaro integratsiyalashuvidir. Xalqaro amaliyotda ushbu fenomen "narkoterrorizm" tushunchasi bilan ifodalanadi.

Terroristik harakatlarni amalga oshirish ulkan moliyaviy resurslarni talab etadi. Qurol-yarog' va portlovchi moddalar sotib olish, jangarilarni tayyorlash, axborot va tashviqot kampaniyalarini olib borish, logistika va aloqa vositalarini ta'minlash singari ehtiyojlar terrorchi tashkilotlarni serdaromad jinoiy faoliyat turlariga yuzlanishga majbur qiladi. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi terrorchi va ekstremistik guruhlar daromadining katta qismi (ayrim hududlarda 60-70 foizigacha) aynan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va prekursorlarining noqonuniy aylanmasidan kelib tushadi [1].

O'zbekiston Respublikasi o'zining geosiyosiy joylashuviga ko'ra, xalqaro narkotrafikning "Shimoliy yo'nalishi" (Afg'oniston – Markaziy Osiyo – Rossiya – Yevropa) tranzitida joylashgan bo'lib, bu mamlakatimiz huquq-tartibot idoralari, xususan, ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv xizmatlari zimmasiga narkotrafik va uni terrorizmni moliyalashtirishga yo'naltirilishining oldini olish bo'yicha ulkan mas'uliyat yuklaydi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI VA MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Terrorizmni moliyalashtirish va narkotrafikning o'zaro aloqadorligi yuridik va siyosiy fanlar doirasida ko'p yillardan buyon tadqiq etilib kelinmoqda. G'arb kriminologlari va xalqaro tashkilotlar (FATF, Interpol, UNODC) hisobotlarida





jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sxemalari batafsil yoritilgan [2].

O'zbekiston milliy qonunchiligi va huquqiy doktrinasida terrorizm va giyohvand moddalar aylanmasiga qarshi kurashish alohida yo'nalishlar sifatida M.H. Rustamboyev, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati metodikasi nuqtai nazaridan bir qator amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan [3]. Biroq bugungi kunda bu ikki jinoyatning bir-biriga qo'shilib, yagona maqsadli zanjirni tashkil etishi (konvergensiya) yanada chuqurroq, tezkor-qidiruv metodikasi va zamonaviy texnologik xavf-xatarlar (kripto-iqtisodiyot, darknet) doirasida o'rganishni taqozo etadi. Qolaversa, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining imkoniyatlaridan ushbu murakkab zanjirni barvaqt aniqlash va uzib qo'yishda qanday foydalanish masalasi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ASOSIY QISM (Tahliliy va ilmiy yondashuvlar)

1. Narkoterrorizmning yuridik tabiati va ijtimoiy xavfliligi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (JK) terrorizmni moliyalashtirish (155-3-modda) va giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda o'tkazish (273-modda) jinoyatlari o'ziga xos ijtimoiy xavflilik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi [4]. Terrorizmni moliyalashtirish deganda terroristik tashkilotning mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, terrorchilik harakatini tayyorlashni ta'minlash maqsadida pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkni berish, yig'ish yoxud moliyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish tushuniladi.

"Narkoterrorizm" atamasi rasmiy jinoyat-huquqiy atama bo'lmasa-da, kriminologiyada va TQF amaliyotida keng qo'llaniladi. Ushbu jinoyatlar konvergensiya (qo'shilishining) asosiy sabablari quyidagilardir:

- **Daromadlilik darajasi:** Narkotik moddalar savdosi yashirin iqtisodiyotdagi eng daromadli faoliyat bo'lib, xalqaro bozorlarda uning narxi





yuzlab barobarga oshadi. Bu terrorchilar uchun "tezkor va yirik moliyaviy inyeksiya" vazifasini bajaradi.

- **Yashirin tizimning o'xshashligi:** Giyohvand moddalar savdosi tarmog'i ham, terrorchilik guruhlar ham chuqur konspirativ (yashirin) xarakterga ega. Ular umumiy yashirin yo'llardan (tranzit koridorlaridan), bojxona va chegara nazoratini aylanib o'tish usullaridan, soxta hujjatlardan va poraxo'r mansabdor shaxslar tarmog'idan birgalikda foydalanadilar.

- **Ijtimoiy destabilizatsiya:** Terrorchilar narkotik moddalarni dushman davlat hududiga kiritish orqali nafaqat pul ishlashadi, balki shu hudud aholisining (ayniqsa, yoshlarning) genofondini, psixik salomatligini barbod qilish orqali mamlakatni ich-ichidan zaiflashtirish (qo'poruvchilik) maqsadini ham amalga oshiradilar [5].

2. Giyohvandlik mablag'larini terrorizmni moliyalashtirishga o'tkazish (legallashtirish) mexanizmlari Tezkor-qidiruv faoliyatida terrorizmni moliyalashtirish faktini isbotlashdagi eng qiyin bosqich – bu pul mablag'larining harakatini kuzatishdir (Follow the money). Narkotik vositalari savdosidan tushgan naqd pullar bevosita terrorchilarga yuborilmaydi. Buning uchun yirik "kir yuvish" (Jinoiy daromadlarni legallashtirish – JK 243-modda) sxemalari ishga tushadi:

- **Xavala (Hawala) tizimi:** An'anaviy va qonuniy nazorat organlari ko'rmaydigan, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoda keng tarqalgan ishonchga asoslangan norasmiy pul o'tkazmalari tizimi. Narkosavdogar Toshkentda yoxud Moskvada naqd pulni "xavalador"ga beradi, Afg'oniston yoki Suriyadagi terrorchi esa u yerdagi boshqa xavaladordan kerakli summani qabul qilib oladi. Bunda hech qanday bank hujjati rasmiylashtirilmaydi.

- **Tashqi iqtisodiy faoliyat orqali niqoblash:** Narkotrafikdan olingan daromadlar import-eksport operatsiyalari orqali, masalan, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlari yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari





savdosi bilan shug'ullanuvchi "bir kunlik" firmalar orqali yuviladi va terrorchilarni qurollantirish xarajatlariga o'tkaziladi.

• **Kriptoalyutalar va Dark Web:** Hozirgi kunda Telegram botlari, yashirin internet tarmoqlari (Darknet) orqali narkotik moddalar savdosi ("zakladka" tizimi) to'liq raqamlashtirildi. Xaridorlar pulni Bitkoin (BTC) yoki Monero (XMR) kabi izini aniqlash juda qiyin bo'lgan kriptoalyutalarda to'lamoqda. Ushbu kriptoalyuta hamyonlari bevosita xalqaro terrorchi tashkilotlarning moliya markazlari tomonidan boshqarilayotganligi xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan Interpol tomonidan o'tkazilgan operatsiyalarda o'z isbotini topmoqda [6].

3. TQF orqali narkoterrorizmga qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, o'ta og'ir va transmilliy xarakterga ega bo'lgan bunday jinoyatlarni fosh etishda barcha tezkor-qidiruv tadbirlari kompleksi qo'llaniladi [7]. Bu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor bo'linmalar xodimlari quyidagi o'ziga xos taktik usullarni qo'llashlari zarur:

• **Guruhga tezkor kirish va nazorat ostida xarid qilish:** Bu o'ta xavfli tadbir bo'lib, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tezkor xodim yoki maxfiy yordamchi terrorchi-narkosavdogarlar tarmog'iga kiritiladi. Bunda maqsad faqat 1-2 kg giyohvand moddani ushlash emas, balki butun ta'minot zanjirini, mablag'larning qayerga, qaysi terrorchi tashkilot hisobiga yo'naltirilayotganini aniqlashdir. Nazorat ostida tovar yetkazib berish (narkotrafik) tadbiri xalqaro miqyosda qilinganda boshqa davlatlar maxsus xizmatlari bilan hamkorlik talab etiladi.

• **Tezkor-texnik va Kiber-TQF chora-tadbirlari:** Dushmanning zamonaviy axborot xavfsizligi tizimlaridan foydalanishini inobatga olgan holda, messenjerlardagi yozishmalarni tahlil qilish, IP manzillarni aniqlash,





serverlar va bulutli xotiralarni tezkor ko'zdan kechirish kabi raqamli tezkor tadbirlarga ehtiyoj ortmoqda. Moliyaviy TQF (Financial Intelligence) orqali O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va IIV JQB tezkor apparatlari shubhali bank o'tkazmalari va birjalardagi kripto-tranzaksiyalarni tahlil qilishlari shart.

HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, narkoterrorizmga qarshi kurashish jarayonida bir qator huquqiy va amaliy qiyinchiliklar mavjud:

1. Moliya bozorini monitoring qilishdagi bo'shliqlar:

Narkotrafik daromadlari asosan naqd pul shaklida (kuryerlar orqali) aylanayotganligi sababli ularni bank tizimlari qamrab ololmaydi. Shuningdek, respublikamiz hududida kriptovalyuta operatsiyalarining xufyona (noqonuniy mayning va p2p savdosi) aylanishi ustidan nazorat mexanizmlari yetarli emas.


2. Idoralararo integratsiyaning yetishmasligi:

Bojxona, IIV, DXX va Moliyaviy monitoring departamenti o'rtasida shubhali shaxslar, ularning moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bazalarini real vaqt rejimida (online) to'liq integratsiya qilish jarayoni oxiriga yetkazilmagan.

3. Kadrlar salohiyati:

Narkotrafik va terrorizmni moliyalashtirish jinoyatlarini fosh etish odatiy o'g'irlik yoki talonchilikni fosh etishdan tubdan farq qiladi. Buning uchun IIV tizimidagi tezkor xodimlardan nafaqat jismoniy va yuridik tayyorgarlik, balki yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlik, IT-texnologiyalar, blokcheyn tahlili hamda chet tillarini chuqur bilish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR





O'tkazilgan ilmiy va tahliliy izlanishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, terrorizmni moliyalashtirishda giyohvandlik vositalari savdosining roliga baho berishda ushbu ikki jinoyat turini alohida-alohida emas, balki bir-birini ta'minlovchi yagona jinoiy ekotizim sifatida ko'rish va ularga qarshi zarbani ham kompleks tarzda berish talab etiladi.

Milliy xavfsizlik va xalqaro barqarorlikni ta'minlash, narkoterrorizmga qarshi TQF samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Birinchidan, IIV va DXX tizimida axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar yordamida sodir etilayotgan narkoterrorizm va moliyalashtirish sxemalarini tahlil qiluvchi alohida "Raqamli moliya va Kiber-TQF" ixtisoslashtirilgan tahliliy-tezkor markazlarini tashkil etish zarur. Bu markaz bevosita kriptovalyuta tranzaksiyalarini (blokcheynni analiz qilish dasturlari orqali) kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunini Xalqaro moliyaviy choralarni ishlab chiquvchi guruh (FATF)ning so'nggi tavsiyalariga moslashtirish, xususan, "xavala" va shunga o'xshash norasmiy pul o'tkazish tizimlaridan foydalanganlik uchun javobgarlik va tezkor nazoratni kuchaytirish mexanizmlarini qonun darajasida mustahkamlash lozim [8].

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida "Tezkor-qidiruv faoliyati" o'quv dasturi doirasida kursantlar uchun "Moliyaviy tergov asoslari" (Financial investigation) va "OSINT – ochiq manbalardan tezkor ma'lumotlar to'plash" yo'nalishida maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq. Bu xodimlarga jinoiy pullarning raqamli izidan tushish ko'nikmasini shakllantiradi.





To'rtinchidan, narkotrafik ko'proq transchegaraviy va mintaqaviy tusga ega ekanligini hisobga olib, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)ning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) va MDH davlatlari muvofiqlashtiruvchi organlari doirasida narkoterrorchilarning yagona biometrik va moliyaviy ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha tashabbus bilan chiqish.

Xulosa qilib aytganda, terrorizmni moliyalashtirish tarmog'ini kesish u qanchalik chuqur yashirilgan bo'lmasin, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning professional, texnologik jihatdan qurollangan hamda kuchli xalqaro idoralararo hamkorlik tarmog'iga ega bo'lishini taqozo etadi. Faqatgina qonuniylik, xolislik va ilg'or tezkor-qidiruv taktikasi orqaligina jamiyatni ushbu "narkoterror" illatidan himoya qilish mumkin.

REFERENCES:

1. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report 2024. [Elektron resurs] // – URL: <https://www.unodc.org>.
2. FATF (2023), Terrorist Financing Risk Assessment Guidance. Paris. [Elektron resurs] // – URL: <https://www.fatf-gafi.org>.
3. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2018. – 480 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 15.12.2000-y., 167-II-son. [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.
6. Mamatov A. Q. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorizm: moliyaviy jihatlari va unga qarshi kurashish mexanizmlari. – Monografiya. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021. – 230 b.





SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



7. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25.12.2012-y., O'RQ-344-son. [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.

8. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.

Contact: 99 826 99 56

